



QURILISH ISHLARI 2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida

Raqamlar:

Qurilish ishlari
hajmi -
2653,0 mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
4,5 %

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar
ulushi -
63,7 %

Norasmiy sektor
ulushi -
31,8 %

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida Namangan viloyatida jami 2653,0 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,5 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmining yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 119,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,5 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,7 % yoki 1691,0 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 143,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 31,8 % yoki 842,5 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,8 % ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **119,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **123,0 %**

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

- hajmi - **1691,0 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **143,4 %**

Norasmiy sektor

- hajmi- **842,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **126,8 %**

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida Namangan viloyatida jami 2653,0 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 868,0 mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil yanvar-oktyabr oylarida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 119,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,0 mlrd.so'mga ko'paydi.


Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 1691,0 mlrd.so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 629,3 mlrd.so'mga ko'paydi.

Norasmiy sektor hissasi 842,5 mlrd. so'mga to'g'ri kelib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 206,9 mlrd.so'mga ko'paydi.

Qurilish ishlari (mlrd so'm)


■ yanvar-oktyabr 2019-yil

■ yanvar-oktyabr 2018-yil





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 1905,5 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 674,0 mlrd.so'mga ko'paygan.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 242,9 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 6,8 mlrd.so'mga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 504,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 200,9 mlrd. so'mga ko'paygan.

Yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,9 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 55,0 % (7,8 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 44,1 % (7,4 % ga kamayish) ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 38,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 14,4 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 61,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 14,5 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 0,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,2 % ga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi va 1,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,1 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi.



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2501,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 foizga ko'paydi.






QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Pop tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining 44,7 % yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (613,9 mlrd.so'm yoki 134,1 %) - Namangan shahrida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;

Uychi tumanida (277,7 mlrd.so'm yoki 134,4 %) - Uychi tumani hududida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Namangan tumanida (244,5 mlrd.so'm yoki 151,3 %) - Namangan tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;




Hududlar kesimida qurilish ishlari

| № | Shahar tumanlar | 2018 yil yanvar- oktyabr (mlrd,so'm) | 2019 yil yanvar- oktyabr (mlrd,so'm) | O'tgan yilga nisbatan (%) | Jamiga nisbatan ulushi (%)da |
|-------------------------------|----------------------|---|---|------------------------------------|---------------------------------------|
| Viloyat bo'yicha jami: | | 1784,9 | 2653,0 | 136,5 | 100,0 |
| 1 | Namangan shahar | 416,6 | 613,9 | 134,1 | 23,1 |
| 2 | Mingbuloq tumani | 76,1 | 122,2 | 148,3 | 4,6 |
| 3 | Kosonsoy tumani | 160,6 | 245,0 | 140,4 | 9,2 |
| 4 | Namangan tumani | 147,6 | 244,4 | 151,3 | 9,2 |
| 5 | Norin tumani | 86,3 | 106,0 | 113,3 | 4,0 |
| 6 | Pop tumani | 137,0 | 197,4 | 132,9 | 7,4 |
| 7 | To'raqo'rg'on tumani | 107,8 | 172,2 | 146,8 | 6,5 |
| 8 | Uychi tumani | 189,1 | 277,7 | 134,4 | 10,5 |
| 9 | Uchqo'rg'on tumani | 145,7 | 200,8 | 126,5 | 7,6 |
| 10 | Chortoq tumani | 116,4 | 168,1 | 133,9 | 6,3 |
| 11 | Chust tumani | 107,2 | 165,6 | 143,1 | 6,2 |
| 12 | Yangiqo'rg'on tumani | 94,5 | 139,7 | 137,0 | 5,4 |

Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahri 613,9 mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34,1 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 245,0 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40,4 % ga o'sdi, Pop tumanida 197,4 mlrd,so'mlik


qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,9 % ga o'sdi, Uychi tumanida 277,7 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34,4 % ga o'sdi. Chust tumanida 165,6 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,1 % ga o'sdi, Chortoq tumanida 168,1 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,9 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 23,1 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 9,2 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,5 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 4,0 % ni Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 4,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Yangiqo'rg'on tumanida 5,4 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

**2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarining
umumiy hajmda hududlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan %da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Namangan viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi
Aloqa telefoni: (0371) 230-84-85**